



Ichki me'yoriy hujjat

“Turonbank” ATB
Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining
2023-yil “26” *dekabr* dagi
“AS-216”-sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“Ro‘yxatga olindi” № *1112*

“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKINING
MANFAATLAR TO‘QNASHUVIGA OID
SIYOSATI

Toshkent – 2023-yil

Mazkur “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining manfaatlar to‘qnashuviga oid Siyosati (keyingi o‘rinlarda-Siyosat deb yuritildi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunlari, Adliya vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom, Bank Ustavi, “Turonbank” ATBning ichki me‘yoriy hujjatlar talablari va tartib qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Siyosat “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – Bank)da manfaatlari to‘qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va tartibga solish tartibini belgilab beradi.

2. Mazkur Siyosat Bank tomonidan korrupsiya yoki noqonuniy xatti-harakatlarning paydo bo‘lishi yoki rivojlanishining oldini olish uchun qo‘shimcha to‘siqlar yaratish, shuningdek, axloqiy ishbilarmonlik xulq-atvori madaniyatini, jumladan, korporativ boshqaruvning ilg‘or amaliyotini joriy qilish maqsadida qabul qilingan.

3. Ushbu Siyosatda foydalaniladigan asosiy atamalar va ta’riflar:

Bank xodimi – Bankning barcha xodimlari, bank bilan mehnat shartnomasi asosida yoki fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnoma asosida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo‘lgan shaxslar;

Manfaatlar to‘qnashuvi – har qanday jismoniy shaxs, uning yaqin qarindoshlari, do‘stlari, ishbilarmon hamkorlari yoki unga tegishli bo‘lgan kompaniyalarning shaxsiy manfaatlari ushbu shaxs alohida munosabatlarga ega bo‘lgan, ya’ni aloqador shaxs hisoblanuvchi Bankning qonuniy manfaatlariga zid bo‘lganida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

yaqin qarindoshlar — to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori va quyi yo‘nalishdagi qarindoshlar (ota-onalar, farzand asrab oluvchilar, farzand qilib asrab olinganlar, farzandlar, bobo va buvilar va nevaralar), to‘liq va yarim (ota bir yoki ona bir) aka-uka va opa-singillar.

Aloqador shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Bir qarz oluvchiga, o‘zaro bog‘liq qarz oluvchilar guruhiga, jumladan, bank bilan bog‘liq shaxslarga to‘g‘ri keladigan tavakkalchilikning maksimal miqdori to‘g‘risida”gi Nizomining tegishli mezonlariga muvofiq, bank bilan o‘zaro munosabatlari Bank qarorlarini qabul qilishda muhim ta’sir ko‘rsatishga imkon beradigan yuridik va jismoniy shaxslar.

2-bob. Siyosatning qo‘llanish doirasi

4. Mazkur Siyosat Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a’zolari, shuningdek, Bank xodimlari va uning uchinchi shaxslar bilan munosabatlarida Bank nomidan vakillik qilishga vakolatli boshqa shaxslarning xatti-harakatlari va faoliyatiga nisbatan qo‘llaniladi.

5. Shunga muvofiq, mazkur Siyosat Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a’zosi bo‘lgan har bir shaxs yoki qonunda nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha uchinchi shaxslar bilan

munosabatlarida Bank nomidan vakillik qiluvchi shaxs tomonidan bajarilishi majburiydir.

6. Bundan tashqari, ushbu Siyosat Bank tuzilmasidagi faoliyati manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan Bank xodimlari tomonidan rioya qilinishi majburiydir.

7. Ushbu siyosat Bank aksiyadorlari o'rtasida yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solmaydi.

3-bob. Siyosat urg'u beradigan jihatlar hamda uning predmeti

8. Ushbu Siyosat Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining barcha a'zolari, direktorlari va ijrochi rahbarlari, Bank xizmatlari markazi va Bank ofislari markazi rahbarlari, Bank tuzilmasidagi muayyan majburiyatlardan kelib chiqqan holda, ishonchnomalar yoki qonun hujjatlari bo'yicha Bankning agentlari va boshqa vakillari sifatida faoliyat yurituvchi Bank xodimlarining (keyingi o'rinlarda, birgalikda va yakka tartibda – Aloqador shaxslar deb yuritiladi) xulq-atvorini tartibga solish uchun mo'ljallangan.

4-bob. Boshlang'ich shartlar

9. Ushbu Siyosatni ma'qullashda Bank joriy muhit doirasida Bank va uning Aloqador shaxslari doimiy ravishda manfaatlar to'qnashuvi holatlariga duch kelishidan kelib chiqadi.

10. Shunday qilib, manfaatlar to'qnashuvi noqonuniy hisoblanmaydi. Biroq, aniqlash va boshqarish bo'lmagan chog'da, manfaatlar to'qnashuvi korporativ boshqaruvdagi kamchiliklar yoki ularning faoliyatidagi boshqa noqonuniy hodisalar paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

5-bob. Ta'rif

11. Ilg'or tajribaga muvofiq, Bank manfaatlar to'qnashuvini har qanday shaxsning, uning yaqin qarindoshlarining, do'stlarining, ishbilarmon hamkorlarining yoki unga tegishli bo'lgan kompaniyalarning shaxsiy manfaatlari bu shaxs alohida munosabatlar bilan bog'langan, ya'ni, Bankning Aloqador Tomoni bo'lgan Bankning qonuniy manfaatlariga zid bo'lganida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holat sifatida belgilaydi.

12. Shaxs o'z manfaati yo'lida yoki o'ziga yaqin kishilar manfaati yo'lida boshqaruv vakolatlarini (qaror qabul qilish vakolatini) qo'llash orqali, masalan, yaqin qarindoshlarini Bankda ishlash uchun yollash yoki ularga Bank uchun tovarlar (ishlar yoki xizmatlar) yetkazib beruvchi sifatida imtiyozli shart-sharoitlar yaratish holatlarida o'zi uchun nomaqbul manfaatlarga ega bo'lsa, manfaatlar to'qnashuvi korrupsion xulq-atvorning alohida turiga aylanadi.

6-bob. Bankning yondashuvi

13. Bank o'z faoliyatini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish

va/yoki to'g'ri boshqarish korrupsiya, firibgarlik va boshqa qonunga xilof xulq-atvorning oldini olishi, shuningdek, axloqiy ishbilarmonlik xulq-atvor madaniyatini yuksaltirishga yordam berishiga asoslanadi.

14. Bunday manfaatlar to'qnashuvi axloqiy va mas'uliyatli me'yorlar asosida tartibga solinishi Bankning to'g'ri ishlashi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

15. Bank har qanday manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborot oshkor etilishi va iloji bo'lsa, oldini olish lozimligi to'g'risida mutlaq pozitsiyani egallaydi, chunki bu shaxsning Bank oldidagi o'z funksional vazifalarini bajarishi borasidagi mulohazalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

16. Ushbu Siyosat va Bankning boshqa ichki qoidalariga muvofiq, u Aloqador shaxslarning yuzaga kelib ulgurgan va kelgusida paydo bo'lishi mumkin manfaatlar to'qnashuvlarini, manfaatlar to'qnashuvining paydo bo'lishini nazorat qiladi va tartibga soladi hamda o'ziga yoki uning Aloqador tomonlariga mavjud ziddiyatdan manfaat olishiga yo'l qo'ymaydi. Xususan, Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari o'z mansabdor shaxslari, boshqa xodimlari, agentlari va vakillari, bankning tarkibiy bo'linmalarining uning aksiyadorlari va Aloqador shaxslari bilan faoliyatida ushbu Siyosatga rioya etilishini muntazam ravishda nazorat qilib boradi.

17. Ushbu Siyosatga tegishlicha rioya etilmaganda, Bank tegishli aloqador shaxslar va Siyosatni buzganlik uchun mas'ul shaxslarning faoliyatini tekshiradi, bu esa jiddiy huquqiy, moliyaviy va nufuzga ta'sir qiluvchi oqibatlarni nazarda tutadi.

7-bob. Siyosatning deklaratsiyalari

18. Quyidagi normativlar ushbu Siyosatning tayanch qoidalarini ifodalaydi, ularning asosida Bank o'zining ishbilarmonlik faolligi va operatsiyalarining qonuniyligi va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan boshqa ichki qoidalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi:

Bank va uning aloqador shaxslari o'z faoliyati davomida, shuningdek, o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida barcha qonunlar va me'yoriy hujjatlarga, shuningdek Bankning barcha ichki me'yoriy hujjatlariga, jumladan, maxfiylik siyosati va talablariga rioya qilishadi;

Har bir Aloqador Tomonning o'z xizmat vazifalarini bajarishi yoki Bank manfaatlarini ifodalash bilan bog'liq barcha qarorlari va harakatlari Bankning eng yaxshi manfaatlarini ko'zlab qabul qilinadi va bajariladi;

Bankning Aloqador shaxslari Bankning biznes imkoniyatlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalana olmaydilar;

Bankning Aloqador shaxslari ushbu Siyosat qoidalariga va Bankning boshqa ichki qoidalariga muvofiq har qanday manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni darhol oshkor qilishlari shart;

Bankning Aloqador shaxslari, qachonki ularda manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatda har qanday muhokamada, ovoz berishda yoki korporativ yoki boshqaruv qarorlarini qabul qilishning boshqa shakllarida ishtirok etishdan, shuningdek, Bank nomidan harakatlarni amalga oshirishdan bosh tortishlari shart hamda bunday qarorlarni qabul qilishda ishtirok eta olmaydi yoki qabul qila olmaydi;

Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari ushbu Siyosatga qat'iy rioya qilish namunasini namoyon qilishlari, shuningdek, barcha manfaatdor tomonlarga manfaatlar to'qnashuvini monitoring qilish tartibga solish hamda ular to'g'risidagi axborotni oshkor qilish borasida zarur ko'rsatmalar va tushuntirishlarni taqdim etishlari shart;

Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi hamda barcha direktorlik tarkibi lavozimiga, Bankning, uning Bank xizmatlari markazining boshqaruv yoki boshqa muhim lavozimlarga nomzodlar ularning Bank tuzilmasidagi ishi yoki tayinlanishi chog'ida o'ziga nisbatan har qanday manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishlari shart;

Bankning barcha Aloqador shaxslari, ushbu Siyosat qoidalariga muvofiq, kamida yiliga bir marta manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ilgari oshkor qilingan ma'lumotlarini va har qanday holatda manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan va ilgari oshkor etilmagan har qanday holatda yangilashlari shart;

Bank ushbu Siyosat talablarini o'zining barcha Aloqador shaxslari, Bank xodimlari, Bankdagi lavozimlarga nomzodlar, shuningdek, boshqa manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazilishini kafolatlaydi;

Bank ushbu Siyosatning qo'llanilishi va talablariga muvofiq bo'yicha ta'limni taqdim etadi va so'rov bo'yicha uni qo'llashga doir tushuntirishlar va ko'rsatmalar beradi;

Bank o'rnatilgan qonunchilik va o'zining ichki talablariga muvofiq manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni oshkor qiladi, hisobot beradi va e'lon qiladi va kamida yiliga bir marta Bank ushbu Siyosatning dolzarbligi va to'liqligini baholaydi.

8-bob. Manfatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi yoki mavjud bo'lishi mumkin payt

19. Manfaatlar to'qnashuvi Bankning va Bank ichidagi turli faoliyat va operatsiyalarni bajarilishi, uning ishbilarmonlik faolligi hamda uchinchi shaxslar, jumladan, mahalliy va xorijiy fuqarolar va yuridik shaxslar bilan kontrakt munosabatlariga bog'liq ravishda yoki natijasida yuzaga kelishi mumkin. Xususan, bunday manfaatlar to'qnashuvi quyidagi holatlarda yuzaga kelishi mumkin:

Bank o'z mol-mulkini tasarrufidan chiqarganda yoki uchinchi shaxslardan mol-mulkni sotib olganida, shuningdek, Bank shartnoma bo'yicha o'zining kontrakt bo'yicha kontragentlari yoki ishbilarmon hamkorlarining kontrakt majburiyatlarini yoki vakolatlarini o'z zimmasiga olganida;

Bank sho'ba yoki boshqa nazorat qilinadigan tashkilotlarni tuzganda, boshqa yuridik shaxslarning kapitali va mulkida ishtirok etganda, birgalikda tijorat, xayriya va notijorat faoliyatning boshqa turlarini amalga oshirganda;

Bank o'z aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqargan, joylashtirgan, konvertatsiya qilgan, ayirboshlagan va qayta sotib olgan taqdirda yoki keyinchalik o'z aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini chiqarishda;

Bankning o'z aksiyadorlari bilan, shuningdek Bank a'zo bo'lgan korporativ guruh (aloqador shaxslar guruhi)ning a'zosi hisoblangan boshqa yuridik shaxslar bilan, jumladan, maxfiy axborotni (tijorat siri yoki qonun bilan muhofazalangan axborot) almashishda, moliyaviy va nomoliyaviy hisobotlarni taqdim etishda, Bank korporativ guruhi a'zolarining

boshqaruv organlarini shakllantirishda, dividendlar va ularning to'lanishini e'lon qilishda, Bankning korporativ guruhiga kiruvchi tashkilotlar o'rtasida mol-mulkni qayta taqsimlashda va korporativ guruh a'zolari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning boshqa usullarni amalga oshirishda;

Bankka qon-qarindoshlik yoki mulkiy huquqlar bilan bog'lik shaxslarni (keyingi o'rinlarda "qarindoshlar" deb yuritiladi) ishga yollash yoki lavozimga tayinlashda, agar bu holat bo'ysunish, hisobdorlik, bankda amal qiluvchi ishbilarmonlik jarayonlar tuzilmasida o'zaro hamkorlik zarurati bilan bog'liq bo'lsa yoki Bank faoliyati va uning natijalarining Bankdagi, uning sho'ba korxonalarini, filiallari yoki vakolatxonalaridagi o'z xizmat vazifalarini bajarish bo'yicha Qarindoshlarning o'zaro hamkorligiga bog'liqligida;

Qarindoshlar bilan o'zaro munosabatlarga ta'sir qiluvchi boshqaruv va / yoki lavozim majburiyatlarini amalga oshirish jarayonida.

9-bob. Aloqador shaxslarning sodiqlik majburiyatlari

20. Bankning Aloqador shaxslari Bank nomidan qarorlar qabul qilishda va biron tushdagi tegishli harakatlarni amalga oshirishda faqat Bankning qonuniy manfaatlarini hisobga olishlari, vijdonlilik va bunday qarorlarning asoslilik tamoyillari asosida, Bank manfaatlarini himoya qilgan holda, Bankka sodiqlikni saqlab, unga zarar yetkazuvchi mulkiy va nomulkiy zarar yetkazmaslik yoki buning iloji bo'lmaganda, Bank uchun salbiy oqibatlarni minimallashtirish bo'yicha choralar ko'rgan holda harakat qilishlari shart.

10-bob. Bank aloqador shaxslarning reestri

21. Bank o'zining aloqador shaxslari reestrini shakllantiradi va yuritadi.

22. Manfaatlarni to'qnashuvi mavjudligini tasdiqlash uchun Bankning aloqador shaxslari reestriga havola majburiydir.

23. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari Aloqador shaxslar reestrini shakllantirish va yuritish, shuningdek unga kirish qoidalarini qabul qilishlari shart.

11-bob. Qarindoshlarni ishga yollash

24. Bank qarindoshlarni ishga yollashda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga intiladi va bu holatda Bank har qanday mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining oqibatlarini oldini olish maqsadida nazorat qiladi.

25. Ushbu maqsadlar uchun Bank o'zining ichki qoidalarida nomaqbul bo'ysunish, hisobdorlik yoki bir shaxsning boshqasi ustidan nazorat qilish, Bankda amal qiluvchi ishbilarmonlik jarayonlar tuzilmasida zarur bo'lgan o'zaro hamkorlikni yoki qarindoshlari ma'lum lavozimlarni egallashlarida yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, o'zlarining rasmiy vazifalarini bajarishdagi Qarindoshlarning o'zaro munosabatlarini Bank faoliyatiga bog'liqligining holatlarni belgilaydi va hisobga oladi. Bunday ichki hujjat Kuzatuv

kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

12-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq bitimlar

26. Bank manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘ri tartibga solinishini ta‘minlash, Bank va uning aksiyadorlarining mulkiy manfaatlarini himoya qilish, suiiste‘molliklarning oldini olish va Bank bunday bitimlarni tuzishi va amalga oshirishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ta‘sirlarni minimallashtirish maqsadida o‘zining manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq bitimlarga oid siyosatini qabul qiladi.

13-bob. Yakuniy qoidalar

27. Ushbu “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining manfaatlar to‘qnashuviga oid Siyosati Bank Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida tasdiqlanib ro‘yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

28. Ushbu Siyosatga o‘zgartirish va qo‘shimchalar faqat Bank Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarori asosida amalga oshiriladi.

29. Boshqaruv a‘zolari yiliga kamida bir marta ushbu Siyosatning muvofiqligini ko‘rib chiqishlari va baholashlari va o‘zlari zarur deb hisoblagan har qanday o‘zgartirishlarni Aksiyadorlar yig‘ilishi tomonidan tasdiqlash uchun tavsiya etishlari shart.

30. Ushbu siyosat Bankning potensial va yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvlarining oldini olish va boshqarish bo‘yicha asosiy me‘yoriy hujjatidir. Ushbu siyosat Bank ishtirokidagi bitimlar yoki boshqa huquqiy munosabatlar amaldagi qonunchilik bilan ruxsat etilgan barcha hollarda so‘zsiz bajarilishi kerak.

31. Ushbu Siyosat Bankning ichki hujjati bo‘lib, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va ularning namoyon bo‘lishining salbiy oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha muayyan tartibotlar, jarayonlar, yo‘riqnomalarni tartibga solish uchun Bank tomonidan boshqa ichki qoidalarni ishlab chiqish va qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

32. Ushbu siyosat Bankning tijorat siri yoki boshqa himoyalangan maxfiy axborotini tashkil etuvchi hujjat hisoblanmaydi. Bankning har bir xodimi va mansabdor shaxsini ushbu Siyosat bilan tanishtirish majburiy hisoblanadi.

33. Mazkur ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining manfaatlar to‘qnashuviga oid Siyosati” kuchga kirgan kundan boshlab Bank Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining 2016-yil 25-iyundagi AS-1-son qarori bilan tasdiqlangan “Turonbank” ATB ning “Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi bekor qilinadi.